

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.06.2020.K/B.91.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TOJIKULOV ABDUXALIL ABDUJALIL O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YARATILGAN BIOMAHSULOTLAR
TARKIBIDA TOKSINLARNI YUQORI SAMARALI SUYUQLIK
XROMATOGRAFIYASI METODLARIDA ANIQLASH**

02.00.10 – Bioorganik kimyo (biologiya)

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
OLISH UCHUN YOZILGAN DISSERTATSIYA
AVTOREFERATI**

Guliston-2024

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on biological sciences**

Tojikulov Abduxalil Abdujalil o'g'li

О'zbekiston sharoitida yaratilgan biomahsulotlar tarkibida toksinlarni
yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodlarida aniqlash.....3

Тожикулов Абдухалил Абдужалил угли

Определение токсинов в составе биопрепаратов, созданных в
условиях Узбекистана, методами высокоэффективной
жидкостной хроматографии.....21

Tojikulov Abdukhalil Abdujalil o'g'li

Determination of toxins in the composition of biological products
created in the conditions of Uzbekistan using high-performance liquid
chromatography methods.....41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works45

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.06.2020.K/B.91.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

TOJIKULOV ABDUXALIL ABDUJALIL O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YARATILGAN BIOMAHSULOTLAR
TARKIBIDA TOKSINLARNI YUQORI SAMARALI SUYUQLIK
XROMATOGRAFIYASI METODLARIDA ANIQLASH**

02.00.10 – Bioorganik kimyo (biologiya)

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) ILMIY DARAJASINI
OLISH UCHUN YOZILGAN DISSERTATSIYA
AVTOREFERATI**

Guliston-2024

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/B1149 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi(www.siyes.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qo'shiyev Habibjon Hojiboboyevich

biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xoshimova Nigora Rustamovna

biologiya fanlari doktori, katta ilmiy hodim

Qodirov Orifjon Sharipovich

farmaseftika fanlari nomzodi, dots

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.06.2020.K/B.91.03 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «_____» _____ kuni soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140100, Guliston shahri, 4-mavze, universitet kampusi. Tel.: (99867) 225-24-90, e-mail: gdu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 120100, Guliston shahri, 4-mavze, universitet kampusi. Tel.: (99866) 233-38-73, e-mail: sies_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «_____» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Tilyabaev Zaidjon

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, biologiya fanlari doktori, professor

Djurayev Tulkin Arzikulovich

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi
biologiya fanlari falsafa doktori, PhD, dotsent

Xoshimova Nigora Rustamovna

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori, katta
ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global muammolardan biri turli patogen va fitopatogen mikroorganizmlarning oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga ajratayotgan toksinlardan zaharlanish yoki jiddiy kasalliklarning yuzaga kelayotganligidir¹. Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida besh yuzdan ortiq mikotoksinlar yuzdan oshiq zamburug‘lar ajratadigan oxratoksinlar, aflatoksinlar, zearalenon, fumonisinlar, patulin va sitrininlar kabi mikotoksinlar chorva mollari, parrandalar va aholi salomatligiga salbiy ta’sir etmoqda. BMTning oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo‘yicha FAO va JSST tashkilotlari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 25 foizi mikotoksinlar ifloslanishi qayd etilib, hamkorlikdagi qarorida insoniyat salomatligi bilan bog‘liq holda oziq-ovqat mahsulotlaridagi mikotoksinlar tarkibini monitoring qilib borishning dolzarbligini ko‘rsatgan holda alohida vazifalar belgilangan². Shunga ko‘ra, har bir iqlim sharoitda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlaridagi toksinlarni aniqlash va miqdoriy ko‘rsatkichlarini boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi yo‘nalishida patogen va fitopatogen mikroorganizmlarning migratsiyasini boshqarish hamda ularning mahsulotlarga zarar keltirishi bilan birga ajratadigan toksinlarini aniqlash asosida me‘yoriy ko‘rsatkichlarini belgilash bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada o‘simlik mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlashda patogenlar ajratadigan toksinlarni aniqlashning optimal usullarini tanlash yoki yaratish va mahsulotlar tarkibida mikotoksinlarning miqdoriy ko‘rsatkich chegarasini belgilash, mahsulotlar tarkibida toksinlarni yuqori aniqlikda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan metodlarni tanlash va yaratish asosida mahsulotlar sifatini nazorat qilishga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar asosida oziq-ovqat mahsulotlari tarkibini aniqlash va ekologik xavfsiz mahsulotlar yaratish bo‘yicha nanotexnologik yondashuvlarga asoslangan innovatsion ishlanmalar amaliyotga tadbiiq etilib muayyan ilmiy natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida³ «ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish» bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda oziq-ovqat yo‘nalishida muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan o‘simlik mahsulotlarining ekologik xavfsizligini ta‘minlash maqsadida patogenlarga chidamli o‘simlik navlarini tanlash va yaratish, mahsulotlari tarkibidagi mikotoksinlarni aniqlashning samarali metodlarini tanlash yoki yaratish ilmiy va amaliy jihatdan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

¹Lara H. H., Ayala-Nunez N. V., Ixtepan-Turrent L., Rodriguez-Padilla C. Mode of anti viral action of silver nanoparticles against HIV-1// *J. Nanobiotechnol.*-2010.-№ 8.-p. 31–39.

²Bulletin of the South Ural State University. Ser. Food and Biotechnology. 2020, vol. 8, no. 1, pp. 105–111

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

“O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi”da Oziq-ovqat xavfsizligi keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog‘liq bo‘lib, mamlakat rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. 2022-yil 6-oktyabrdagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorlari, 2020yil 10-noyabrdagi «Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-4887-son⁴, 2018 yil 16-yanvardagi «Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5303-son hamda 2022yil 29 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda oziq-ovqat xavfsizligi ta‘minlash to‘g‘risida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhitni muxofaza qilish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mikotoksinlarning paydo bo‘lishi haqida dastlabki ma‘lumotlar, 1977-yilda BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturining mikotoksinlar bo‘yicha birinchi konferentsiyasida taqdim etilgan. O‘sha paytda turli ozuqalar va oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida aflatoksinlar, zearalenon, oxratoksin A, sitrin, trikotsenlar, patulin, va ergot alkaloidlarining tabiiy paydo bo‘lishi ko‘rsatilgan. Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha don tarkibidai bo‘ladigan nivalenol, zearalenon toksinlarini birinchi marta Polshalik Jelinek CF, Pohland AE, Wood GE 1989 yilda o‘rganilgan. 1990 yilda Peraica, M., Radic, B., Lucic, A. and Pavlovic, M., 2003 yilda Bennett J. W. Klich M., 2008 yilda Surai P. F. Mezes M. Melnichuk S. D. Fotina T. I. Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida aniqlangan toksinlarning 30 ga yaqin turini yuqori toksik xususiyatlarga ega ekanligini aniqlashgan.

Don va don mahsulotlari mikotoksinlarning asosiy manbai bo‘lib kelgan. *Claviceps purpurea* dan javdarda 2000 yildan ortiq vaqtdan beri ma‘lum bo‘lgan va so‘nggi ming yillikda Yevropada minglab odamlarning o‘limiga sabab bo‘lgan. Yaponiyada 17-asrdan beri ma‘lum bo‘lgan *Penicillium citreonigrum* guruchda sitreoviridin toksinini ajratishi beri-beri kasalligi o‘rganilishi tufayli aniqlangan.

Mamlakatimizda o‘simliklarda *Fusarium* zamburug‘i ajratadigan mikotoksinlarning oqibatlarini Yuldoshev A. Va boshqa. (2000), Xasanov B.A. va boshqa (2002), Xasanov B.A. (2013, 2017), Xasanov B.A. (2013) tomonidan tadqiq qilingan. Bundan tashqari, Haytboyeva B.A. (2017); Turdiyeva D.T. va boshqa. (2019), Xasanov B.A. et al. (2019), Safarov B.A. va boshqa. (2020) tomonidan ham o‘simliklar turlarida *Fusarium*ning rivojlanishi va ulardan ajraladigan toksinlarni aniqlaganlar. Xakimov B.A. va boshqa., (2021), Xasanov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi PF-4887-son «Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»

B.A. (2020, 2021, 2022) shirin va achchiq qalampirda ham zamburug'lardan ajraladigan mikotoksinlarning ta'siri oqibatlarini o'rganishgan. Ammo o'simlik va o'simlik mahsulotlardan zamburug'lar ajratadigan mikotoksinlarni YSSX yordamida aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmagan.

Tadqiqotning oliy ta'lim muassasasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi, Guliston davlat universiteti "Agrobiotexnologiyalar va biokimyoy ilmiy tadqiqot instituti" ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga biotik va abiotik omillar ta'sirini tadqiq qilish" tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi toksinlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi yordamida aniqlashning samarali metodlarini tanlash va yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mikotoksinlar bilan oziq-ovqat mahsulotlarini ifloslanish ko'rsatkichlari va ularni aniqlash tizimi ishlab chiqish;

oziq-ovqat mahsulotlari namunalaridan turli sinfdagi mikotoksinlarni olish uchun QuEChERS namunalarini tayyorlash usullari va dispersiv suyuqlik-suyuqlik mikroekstraksiya (DSSME) ni birlashtirish imkoniyatini yaratish;

xromatografik usullar bilan tahlil qilish uchun zarur bo'lgan turli matritsalaridan yuqori tozalikdagi ekstraktlarni olish uchun namuna tayyorlash sharoitlarini va UV, FLD bilan detektorlari bilan jihozlangan qurilmalar yordamida yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasida aniqlash metodlarini optimallashtirish;

quruq mevalar (bodom, o'rik mag'zi, yeryong'oq) tarkibidan aflatoksinlarni ajratish, qiyosiy tahlil qilish va ular tarkibidagi mavjud mikotoksinlar miqdori dinamikasini monitoring qilish.

mikotoksinlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodlarida tahlil qilish davomida tashqi omillarning ta'siri ko'rsatkichlari aniqlash;

don yem va oziq-ovqat mahsulotlarida oxratoksin A va zearalenonlarni xromatografik ajratish va aniqlash usullarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'simlik mahsulotlari tarkibida patogenlardan ajraladigan mikotoksinlar (aflatoksin B1, B2, G1, G2; oxratoksin A, zearalenon, dezoksinivalenol), o'simliklarning quruq mevalari va donli ekinlar mahsulotlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti O'zbekiston sharoitida yetishtiriladigan o'simlik mahsulotlari tarkibida patogenlardan ajraladigan toksinlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi yordamida aniqlashning samarali metodlarini tanlash va yaratishni tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Olib borilgan tadqiqotlarda yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi, gaz xromatografiyasi usullari hamda axborot-kompyuter tahlili imkoniyatlaridan foydalanilgan va olingan natijalarni statistik qayta ishlash Excel 2003 (Microsoft Office; AQSh) va OriginPro v. 8.5 SR1 (EULA, Northampton, MA 01060-4401, AQSh) dasturlari yordamida amalga oshirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aflatoksin B1, B2, G1, G2; oxratoksin A, zearalenon, dezoksinivalenol mikotoksinlarini aniqlash uchun mahsulotni bir vaqtning o'zida ekstraktsiya qilish tizimi ishlab chiqilgan;

turli sinfdagi mikotoksinlarni qo'shimcha tozalash va ajratib olish uchun dispersiv suyuqlik-suyuqlik mikroekstraksiyasi usuli taklif qilingan va metanoldan foydalanilmagan holda mikotoksinlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasida tahlil qilish tizimi ishlab chiqilgan;

tarkibida kremniy, birlamchi va ikkilamchi amin PSA hamda limon kislotasi bo'lgan sorbentdan foydalangan holda o'simlik mahsulotlari tarkibidagi aflatoksinlar, zearalenon hama oxratoksin A turi mikotoksinlarini aniqlash va ajratishning samarali usuli yaratilgan;

mikotoksinlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodlarida tahlil qilishda QuEChERS uulida namuna tayyorlash shartlariga turli omillarning ta'siri ko'rsatkichlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

o'simlik mahsulotlari tarkibida mikotoksinlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodlarida tahlil qilish tizimi ishlab chiqilgan;

o'simlik mahsulotlari tarkibida aflatoksin B1, B2, G1, G2; oxratoksin A, zearalenon, dezoksinivalenolmikotoksinlarini aniqlash uchun biomassani bir vaqtning o'zida ekstraktsiya qilish tizimi ishlab chiqilgan;

mahsulotlar tarkibida uchrovchi mikotoksinlarning har xil sinfiga kiruvchi turlarini tozalash va tanlab olish bo'yicha amaliyotda foydalanish uchun dispersiv suyuqlik-suyuqlik mikroekstraksiyasi usuli ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat namunalari tarkibida aflatoksinlar, zearalenon va oxratoksin A mikotoksinlarni ajratishda sorbent sifatida foydalanishda yangi komponentlardan foydalanish tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan ma'lumotlarning ishonchliligi tajribalar natijalarini qayd qilish, yig'ish va qayta ishlash, tahlil qilish imkonini beruvchi avtomatik tizimlar va zamonaviy tadqiqot uslublaridan foydalanilganligi bilan tasdiqlanadi. Ishda xulosalar zamonaviy matematik-statistika uslublaridan foydalanish asosida chiqarilgan, olingan natijalarni statistik qayta ishlash Styudent *t*-kriteriyasi yordamida o'rtacha qiymatning ishonchlilik intervali oraliq qiymatlarini hisoblagan holda amalga oshirilgan. Olingan natijalarning isboti mutaxassislarning ekspert baholari, tadqiqot natijalarining amaliyotda sinovdan o'tkazilishi, respublika va xalqaro miqyosdagi konferentsiyalardagi muhokamadan o'tkazilishi, natijalarning retsenziyadan o'tkaziluvchi ilmiy nashrlarda chop etilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati YSSX metodlari yordamida o'simlik mahsulotlari tarkibida mikotoksinlarning mavjudligi, ularning miqdoriy ko'rsatkichlarini baholash va monitoring qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalaridan ekologik xavfsiz mahsulotlarni tayyorlash yoki yaratishning fundamental tadqiqotlarga asoslangan tizimini ishlab chiqishda foydalanilish istiqbollari yuqoriligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, mikotoksinlarni YSSX metodlari yordamida aniqlash, ajratib olish va tahlil qilishda metanoldan foydalanilgan holda substratni dispersiv suyuqlik-suyuqlik tizimida ishlab chiqilgan mikroekstraksiyalash usuli yetishtiriladigan o'simlik mahsulotlarini zamburug'lar bilan zararlanganlik darajasini aniqlash hamda mahsulotlarni saqlash sharoitlarini baholashda ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston sharoitida yaratilgan o'simlik mahsulotlari tarkibida toksinlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodlarida aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi yordamida immunoaffinli kolonkalarda mikotoksinlarni ajratishdan oldin ularni substarda mavjudligini aniqlash, miqdoriy ko'rsatkichlarini baholash uchun ekstraktsiya tayyorlashda NaCl bilan birgalikda MgSO₄ va limon kislotasidan foydalanish usulidan Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatlik xizmati Sirdaryo viloyati boshqarmasi "Toksikologiya" laboratoriyasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatlik xizmati markazining 2023 yil 07 fevraldagi 20-05017-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Guliston shahar markaziy dehqon bozorida sotilayotgan donli ekinlar mahsulotlari tarkibidagi mikotoksinlarni tez va samarali tarzda aniqlash hamda baholash imkonini bergan;

Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasidan foydalangan holda mikotoksinlarni biomahsulotlar tarkibidan aniqlashning soddalashtirilgan usulidan Samarqand viloyati "Samarqand Golden Chichpeas" MChJda yong'oq va achchiq bodom mevalari tarkibidagi aflatoksin B1 (AFB1), aflatoksin B2 (AFB2), aflatoksin G1 (AFG1), aflatoksin G2 (AFG2) mikotoksinlari hamda Toshkent viloyati "Berad agro" qo'shma korxonasi olma, shaftoli mevalari va uzumdan tayyorlangan sharbatlar tarkibida zamburug'lardan ajraladigan patulin mikotoksinini aniqlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligining 2023 yil 14 noyabrdagi 03/11-T-11-942-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'simlik mahsulotlari tarkibidagi mikotoksinlarni aniqlash va monitoring qilib borishni yo'lga qo'yish asosida eksportbop mahsulotlarini tayyorlashda samaradorlikka erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 4 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, shulardan 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mikotoksinlarning tarkibi, tuzilishi, tarqalish sabablari, toksik xususiyatlari va ularni migratsiyasi monitoringi”** deb nomlangan birinchi bobi mikotoksinlar, ularning hosil bo‘lishi, oziq-ovqat mahsulotlarini ifloslantirish holatlari to‘g‘risida adabiyot manbalaridan olingan ma’lumotlar tahlili berilgan.

Pereira C.S., Cunha S.C., Fernandes J.O. (2019) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda mikotoksinlar qishloq xo‘jaligi va chorvachilikdan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlarni iste‘molga yaroqsiz holatga keltiruvchi eng muhim zararlovchilardan biri ekanligi qayd etiladi. Mikotoksinlarni zamburug‘lardan ajraladigan ikkilamchi metabolitlar ekanligi Edite Bezerra da Rocha M. va boshqa tadqiqotchilar ishlarida (2014) isbotlangan. Mikotoksinlar kichik va juda barqaror molekulalar bo‘lib, ularni zararsizlantirish yoki yo‘q qilish juda qiyin hamda zaharli xususiyatlarini saqlab, ozuqa zanjiriga kirishi Bryden W.L. (2012) tomonidan qayd etiladi.

Hozirgi kunda besh yuzdan ortiq mikotoksinlar (Urusov A.E. b., 2015), yuzdan oshiq zamburug‘ turlaridan ajraladigan potensial, toksik moddalar aniqlangan. Ular qishloq xo‘jaligi, chorvachilik va aholi salomatligi uchun zaharli ta’sir qiluvchi moddalar oxratoksinlar, aflatoksinlar, zearalenon, fumonisinlar, patulin va sitrininlarni ajratadi. Ushbu mikotoksinlarning global darajada paydo bo‘lishi va mikotoksinlarni iste‘mol qilishi bilan bog‘liq hayvonlarning sog‘ligiga xavf tug‘dirishi sababli, don va ozuqa tarkibidagi ushbu mikotoksinlar darajasi hozirgi vaqtda dunyoning bir qator mamlakatlarida qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi (Vila-Donat P. b., 2019). Aniqlangan mikotoksinlarning 30 ga yaqin turi haqiqiy toksik xususiyatlarga ega (Surai P. F.va b., 2008).

Dissertatsiyaning **“Mahsulotlar tarkibidagi mikotoksinlarni aniqlash, ajratish va ko‘rsatkichlarini baholashda yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodlaridan foydalanish”**, deb nomlangan II bobida tadqiqot obyektlari va usullari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.


Tadqiqotlar uchun namunalar sifatida mamlakatimizning turli viloyatlarida yetishtirilgan quruq mevalar, donli ekinlar va ulardan tayyorlangan oziq - ovqat mahsulotlari tanlab olingan. Shunga muvofiq, obyekt sifatida olingan namunalar tarkibidagi mikotoksinlarni ajratishda turli metodlar qo‘llanilib, optimal ajratish usullari tanlab olingan. Namunalar tarkibidan ajratib olingan mikotoksinlarni aniqlashda yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi YSSX UV/FLD detektorlari bilan jihozlangan qurilmasidan foydalanilgan. Tajribalar davomida, quruq mevalar tarkibidagi aflatoksin B1, B2, G1 va G2 tahlillari yuqori samarali suyuqlik

xromatografiyasi qurilmasida aniqlangan. Makajo‘xori, bug‘doy, guruch va arpa kabi don mahsulotlarida oxratoksin A, dezoksinivalenolva zeralenon miqdori aniqlangan.

Aflatoksinlar ekstraksiyasi GOST ISO 31748 – 2012 me‘yoriy hujjatda keltirilgan namuna tahlilga tayyorlash metodi asosida amalga oshirildi.

Olingan eritma filtrlab olinib, tiniq holdagi eritma olinadi. So‘ngra affinkolonkali xromatografiyadan o‘tkazish uchun tayyorlandi. Ajratilgan filtrat V₃ tiniq bo‘lishi kerak. Olingan ekstraktdan aflatoksinlarni selektiv ajratib olishda immunoaffin kolonka tayyorlanib va ishlab chiqaruvchining ko‘rsatmalariga muvofiq tozalash jarayoni amalga oshirildi.

Namunalar takibidagi toksinlarni aniqlash uchun QuEChERS usuli yordamida namunalar tayyorlandi (1-rasm). Ozuqa namunalaridagi mikotoksinlarni tahlil qilish uchun optimallashtirilgan QuEChERS ekstraksiya usulining ketma - ketlik ko‘rinishi jarayoni 1-rasmda ko‘rsatilgan. YSSX-FLD bilan takomillashtirilgan QuEChERS jarayonidan foydalanishga asoslangan don va don mahsulotlarida oxratoksin A (OTA) ni aniqlash va tahlil qilishning yangi usuli ishlab chiqildi.



1-rasm. QuEChERS ekstraksiya usulining ketma – ketlik bosqichlari.

Don namunalari yuqorida taklif etilgan aflatoksin QuEChERS usuliga o‘xshash tarzda, ba’zi o‘zgarishlar bilan tayyorlangan. O‘zgartirilgan QuEChERS uchta bosqichni o‘z ichiga oladi: Birinchi bosqich: yaxshilab maydalanib, 0,1 sm o‘lchamgacha bir hil holga keltiriladigan 1 kg don namunasidan 1 g o‘lchab olindi va polipropilen sentrafuga probirkasiga (15 ml), solindi. Ikkinchi bosqich: 5,0 ml 20:70:10 (% , v/v) suv/asetonitril/sirka kislotasi 0,5 % li eritmasi aralashmasi qo‘shildi va sentrafuga probirkasida erituvchi butun namuna bilan yaxshilab aralashirilganligiga ishonch hosil qilish uchun 1 daqiqa davomida chayqatildi. Mikotoksinlarni to‘liq ekstraksiya qilish uchun. Uchinchi bosqich: Olingan eritmaga 2 g MgSO₄, 1,5 g limon kislotasi va 1 g PSA ni ekstrakt 5 daqiqa davomida 4000 ayl/min tezligida sentrafuga qilindi va YSSX tahlilidan oldin 0,5 ml yuqori organik qatlam 0,45 mkm neylon shpritsi filtri orqali filtrlandi. QuEChERS ekstraksiya usulida foydalaniladigan tuzlar miqdori optimallashtirildi.


Biomahsulotlar tarkibidagi mikotoksinlarni aniqlash usullari

Biz samarali suyuqlik xromatografiyasi FLD yoki UV detektorlari bilan mikotoksinlarni aniqlashni yoʻlga qoʻdik. YSSX FLD bilan birgalikda, aflatoksin B1, B2, G1, va G2 hamda oxratoksin A miqdorini aniqlashning asosiy usuli boʻlib, yaxshi ishonchlilik va sezgirlik kabi koʻplab afzalliklarga ega. YSSX–FLD yordamida tahlillar oʻtkazishning avfzalligi shundaki, aniqlanayotgan modda tarkibidagi xromofor guruhlarining mavjudligiga ehtiyoj sezilmaydi, chunki ular tabiiy fluoresensiyaga ega boʻladi.

Moddalar miqdorini aniqlashda xromatogramma mutlaq kalibrlash yoki ichki standartlar qoʻshilish usullari yordamida tahlil qilinadi. Bir xil muhitda moddaning kolonkadan chiqish vaqti bir xil va doimiy boʻladi va bu xususiyatdan aniqlanuvchi birikmaning chinligini aniqlashda foydalaniladi. Miqdoriy tahlilda choʻqqilar yuzalari hisoblanadi, chunki choʻqqi yuzasi moddaning miqdoriga toʻgʻri mutanosib boʻladi. Shu sababli biz, olingan supramolekulyar komplekslarni sifat va miqdoriy tahlil qilish uchun yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulidan foydalandik.

Buning uchun oldin dezoksinivalenol va zeralenonlarning standart namunalarning kolonkada ushlanish vaqtlari va maydonlari aniqlab olindi.

Standart namunalar: standart eritma sifatida sotib olingan DON (200 µg/ml) (LRM46911) va ZEN (50 µg/ml) (CRM46916) lar atsetonitrilda suyultirilib turli konsentratsiyali eritmalar olindi. DONning 200 µg/ml li stqandart eritmasi 20 ml hajmli kolbada asetonitril bilan suyultiriladi. Soʻngra ishchi eritmasi sifatida 40 – 100 µg/ml va ZEN uchun esa 5 – 50 µg/ml li eritmalar olindi. Ishchi eritmalar muzlatgichda -20°C da saqlanadi.



2-rasm. (A) Dezoksinivalenolning 210 nm, da diod matritsali detektorda olingan standart namunasi va (B) Zeralenon standart namunasining diod matritsali detektorda 240 nm toʻlqin uzunligida olingan xromatogrammasi

Rasmda keltirilgan xromatogrammalardan koʻrinib turibdiki, standart sifatida olingan DON (200 µg/ml) va ZEN (50 µg/ml) (SigmaAldrich AQSH) baholashda kolonkada ushlanish vaqti DON 1,79 minutda, ZEN esa 6,92 minutda choʻqqi hosil qilganligini aniqladik. Miqdoriy jihatdan standart namunaning konsentratsiyasiga nisbatan xromatogramma choʻqqisi maydoniga nisbatan namunalar tarkibidan DON va ZENlarni miqdoriy koʻrsatkichlarini tekshirishimiz mumkin boʻladi.

Standart namunalar kalibrlanishidan olingan natijalar.


Standart nomi	Chiziqli diapazon ($\mu\text{g/ml}$)	Regressiya tenglamasi	R^2
DON	40–100	Formula: $y = mx + b$ m: 6.38155 b: -4.30971 x: Amount[mkg/ml] y: Area	0,99981
ZEN	5-50	Formula: $y = mx + b$ m: 28.94019b: -1.55032 x: Amount[mkg/ml]y: Area	0,99999

Olingan natijalar asosida, shunday xulosa qilish mumkinki, obyekt sifatida tanlab olingan namunalar tarkibidan DON va ZENni aniqlashda YSSX usulidan samarali foydalanish mumkin va bu usulda yuqori aniqlikda natijalar olish mumkin.

Tahlillarni bajarishimiz uchun bizda YSSX LC 2030 C3D Plus (Shimadzu) qurilmasi Shim-pack GIST-HP C18 150x4,6 mm 3 μm (Shimadzu) kolonkadan foydalanilib, termostat harorati 40⁰C da (ko‘chma faza) mobil faza sifatida gradiyent rejimida H₂O/H₃C-CN = 40/60 nisbatda olinib, fluorescent RF-20A detektorda qo‘zg‘aluvchan to‘lqin uzunligi 365 - 450 nmda va 0,5 ml/min oqim tezligida, mobil faza gabsizlangan va ishlatishdan oldin membrana filtri (47 mm \times 0,45 mkm) orqali filtrlangan, yuborilgan namuna hajmi 10 ml da “LabSolution” dasturi yordamida amalga oshirildi.

Aflatoksinlar standart namunalari YSSX Shimadzu LC2030 3D Plus qurilmasida tahlillar o‘tkazildi. Bajarilgan tahlil natijalariga asosan, AFG1 3,166, AFG2 esa 3,646 minutlarda aniqlandi. Aflatoksinlar B1 va B2 larda esa o‘z navbatida 13,057 va 8,301 minutlarda pik (cho‘qqi) hosil qilishi kuzatildi.


<Chromatogram>
mV



3-rasm. AFB1, AFB2, AFG1 va AFG2 larning standart namunalaridan olingan xromatogrammasi

Dissertatsiyaning “Ajrati b anilqlangan toksinlarni identifikatsiya qilish va ularning chegraviy qiymatlarini monitoring qilish”, deb nomlangan III bobida zamburug‘lar ishlab chiqarilgan mikotoksinlarni IQ spektroskopiyasi metodida aniqlash natijalari bayon etilgan. Shu bilan birga turli namunalarda mikotoksinlar miqdori ma’lumotlari keltirilgan.

IQ spektraskopiya usulida tahlil qilishda suyuqlik - suyuqlik ekstraksiyasi yordamida ajratilgan va yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodi yordamida miqdori aniqlangan dezoksinivalenolning tuzulishini tasdiqladik (4-a va b rasm).



4-rasm. Qayta ishlanmagan makkajo‘xori tarkibidan ajratilib, YSSX usuli asosida aniqlangan dezoksinivalenolning metanoldagi eritmasi miqdori 200 mkg/kg (A) va 680 mkg/ml (B) IQ spektrlari.

Olingan natijalarga asosan, qayta ishlanmagan makkajo‘xoridan ajratilib YSSX metodida aniqlangan ikki xil konsentratsiyalaridagi DON da natijalar olindi.


Metanoldagi DON (0,20-0,680 g/L) eritmaları Yaqin infraqizil spektraskopiya tizimlaridan foydalangan holda tahlil qilindi. Maksimal 1637 cm^{-1} bo‘lgan tarmoqli C=O (karbonil guruhi) tebranishlariga tayinlanishi mumkin; $1158 - 1589\text{ cm}^{-1}$ da maksimal antisimmetrik C–O–C cho‘zilishiga to‘g‘ri keladi; $1041 - 1042\text{ cm}^{-1}$ yaqinidagi tarmoqli R-CH-OH cho‘zilishi uchun mos; va $943 - 944\text{ cm}^{-1}$ bo‘lgan tarmoqli C-O (epoksid halqasi) cho‘zilishiga to‘g‘ri kelishi adabiyotlarda keltirilgan. Olingan ikki spektrlarga asosan, tahlil qilingan metanolli eritmalarimiz tarkibida dezoksinivalenol mavjud ekanligi aniqlandi.

Aflatoksinlar tahlili. Zamburug‘lar tomonidan ishlab chiqarilgan mikotoksinlar miqdoriy tahlil qilishda YSSX («Agilent–1260»; AQSH) usuli samarali tahliliy usul hisoblanadi. YSSX usuli yordamida aflatoksinlar miqdorini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanildi:

$$C_x = \frac{S_x \times C_{st} \times 1,0207}{S_{st}}$$

Bu yerda: C_x – tahlil qilinayotgan namuna tarkibidagi mikotoksin miqdori; C_{st} – standart mikotoksin eritmasining konsentratsiyasi; S_x – tahlil qilinayotgan namunada mikotksinning xromatografik pikining yuza maydoni; S_{st} – standart mikotoksin xromatografik pikining yuza maydoni; 1,0207–qayta hisoblash koeffitsientini ifodalaydi.

Tadqiqotlar davomida, quruq mevalar: o‘rik, achchiq bodom, mayiz va yeryong‘oq kabi mahsulotlar tarkibidan aflatoksinlar miqdori o‘rganildi. Quyida o‘tkazilgan tahlillar asosida olingan xromatogrammalarni ko‘rishimiz mumkin (5-A va B rasm).




5-rasm. Jizzax (A) va Samarqand (B) viloyatlarida yetishtirilgan yong‘oq tarkibidagi aflatoksinlarni YSSX usuli asosida olingan xromatogrammasi.

Respublikamizning turli hududlarida yetishtirilgan quruq mevalar tarkibidagi zamburug‘lar tomonidan ishlab chiqarilgan aflatoksinlar, tadqiqotning zamonaviy usullarida tahlil qilinib, miqdori o‘rganildi.

Mamlakatimizning turli hududlarida yetishtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlari sifatida iste‘mol qilingan quruq mevalar, donli ekinlar va ulardan olinadigan mahsulotlar tarkibidan mikotoksinlar yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodlarida aniqlandi. Quyida dezoksinivalenol, zearalenon va oxratoksin A lar bug‘doy, makkajo‘xori, arpa va guruch kabi olingan namunalar tarkibidan aniqlandi.


Dezoksinivalenol tahlili. Sirdaryo hududida yetishtirilgan donli ekinlar tarkibidagi zamburug‘lar tomonidan ishlab chiqariladigan ikkilamchi metabolitlar dezoksinivalenolva zearalenon miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodida aniqlanib quyidagi xromatogrammalar olindi (6 - a va b rasm).



6-rasm. Sirdaryo viloyatida yetishtirilgan sholi (A) va makkajo‘xori (B) tarkibidagi DON ning YSSX usuli asosida olingan xromatogrammasi.

Xuddi shu tartibda Sirdaryo viloyatida yetishtirilgan boshqa qishloq xo‘jaligi o‘simliklari mahsulotlari tarkibidagi dezoksinivalenol tahlil qilindi.

Oxratoksin A tahlili. Respublikamiz aholisining asosiy iste‘mol mahsulotlari hisoblanadigan guruch, un va un mahsulotlari ishlab chiqarish uchun asosiy homashyo sifatida don mahsulotlari foydalaniladi. Shu sababli oziq-ovqat mahsulotlarida zamburug‘lar tomonidan ishlab chiqariladigan oxratoksin A miqdorini o‘rganish va nazorat qilish zarur. Quyida yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli asosida tahlil qilingan mahsulotlar xromatogrammasi keltirilgan(7- A va B rasm).




7-rasm. Sirdaryo viloyatida yetishtirilgan makkajo‘xori (A) va bug‘doy (B) tarkibidagi oxratoksin A ning YSSX usuli asosida olingan xromatogrammasi.

Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usuli asosida olib borilgan izlanishlarga tayanib, bug‘doy doni tarkibida tekshirilgan arpaga nisbatan DON miqdori o‘n barobar yuqori ekanligi qayd etildi. Dezoksinivalenolmiqdori qayta ishlanmagan makkajo‘xori tarkibida, me‘yoriy hujjatlarda belgilangan miqdor chegaralaridan past va tanlangan mahsulotlar tarkibida nisbatan ko‘p miqdorda yuqori ekanligi aniqlandi (7-rasm).

Tovuq go‘shiti tarkibidagi dezoksinivalenolva zearalenon miqdoriy tahlili.

Standart namuna sifatida keltirilgan DON va ZEN YSSX metodida kalibrlanishida, korrelyatsiya koeffitsienti 0,99 dan katta bo‘lishini ta‘minlashimiz zarur.

Bunda standart namunalar kalibrlash yordamida chizilgan ZEN va DON uchun qabul qilingan standart chiziqlik va korrelyatsiya koeffitsienti ZEN uchun 0,99999 va DON uchun 0,99981 ko‘rsatkichlarni olishga erishildi. ZEN uchun usulning chiziqlik egrisi standart namunalarida 5,10,20 va 25 µg/mlning turli to‘rt darajalarida, ZEN uchun miqdoriy chegarasi 20, 40 va 100 µg/ml gacha uch daraja, kalibrlash egri chizig‘i hosil qilindi. O‘tkazilgan tahlillar asosida quyidagi natijalar olindi (8 a va b –rasm).



8-rasm. DON (A) va ZEN (B) jo‘ja namuna xromatogrammasi

Donli ekinlarni asosiy iste‘mol qilivchi kasallangan jo‘jalardan olingan go‘shit namunalari tarkibidagi mikotoksinlarning miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodi asosida tahlil qilindi. Olingan natijalarga asosan, zamburug‘lar ajratadigan mikotoksinlarning miqdoriy ko‘rsatkichlari olindi.

Tahlillarda namunalar tarkibidagi DON va ZEN tahlilida ikki tovuq jo‘jalari go‘shitlari tahlil qilindi. Olingan natijalarga asosan, dezoksinivalenolmiqdori 1 namuna jo‘jada 42,81 mkg/kg miqdori aniqlandi. Tekshirishlar natijasida ikkinchi namuna tarkibidan dezoksinivalenolva zearalenon aniqlanmadi. Natijada tahlil uchun olingan ikki jo‘jalar iste‘mol uchun yaroqli ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**Mikotoksinlarning mahsulotlar kesimida ta‘sir qilish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish**”, deb nomlangan 4 bobida zamburug‘larning ko‘payishi va mikotoksin ishlab chiqarish sharoitlari va mikotoksinlarning migratsiyasini aniqlash natijalari tahlil qilingan.

Namlik va harorat sharoitlari qulay bo'lganda, zamburug'lar bilan zararlanish o'simliklar rivojlanishining turli bosqichlarda dalada yoki keyinchalik quritish, saqlash vaqtida sodir bo'lishi mumkin (2-jadval).

2–jadval

Zamburug'lar turlari, ularning o'sishi va mikotoksin ishlab chiqarish uchun maqbul sharoitlar turli tadqiqotlar.


Zamburug'lar	O'sish		Optimal o'sish		Toksin ishlab chiqarish uchun optimal	
	Harorat	a _w	Harorat	a _w	Harorat	a _w
<i>Aspergillus flavus/paraziticus</i>	15–44°C	0,91–0,99	35°C	0,95	33°C	0,99
<i>Aspergillus ochraceous</i>	10–40°C	0,80–0,98	24–31°C	0,96–0,98	25–30°C	0,98
<i>Aspergillus carbonarius</i>	8–40°C	0,90–0,93	32–35°C	0,94–0,99	30–35°C	

Laboratoriya sharoitida zamburug'lar bilan zararlangan makkajo'xori donlarning mikotoksinlar ishlab chiqarilishiga harorat va namliklarning ta'siri o'rganilib, monitoring qilindi.

YSSX usuli yordamida olingan natijalarga qaraganda, laboratoriya sharoitida bir xil 85 foiz namlik va turli haroratda saqlangan zamburug' bilan zararlangan makkajo'xori donlarida 10 va 35°C haroratda 10 mkg/ml miqdorda DON hosil bo'lganligi aniqlandi.

Aflatoksinning zamburug'lardan ajralishi va to'planishi ob-havo sharoitlariga bog'liq. Tuproq namligi me'yordan past va harorat yuqori bo'lsa, havoda *Aspergillus* sporalari soni ortadi. Bu sporalar hasharotlar va noqulay ob-havo orqali ekinlarga yuqadi. *Aspergillus* sporalari mahsulotlarda rivojlanib, o'zidan aflatoksin sinfiga kiruvchi toksinlarni ajratadi. Laboratoriya sharoitida namunalardan aniqlangan aflatoksinlarni YSSX usuli asosida quyidagi natijalar olindi:

Zararlangan quruq mevalar yong'oq, mayiz, achchiq bodom, yeryong'oq va o'rik mag'zi tarkibidagi aflatoksinlarni zararsizlantirish bo'yicha, laboratoriyada yuqoridagi haroratlarda tahlillar olib borildi (9-rasm).



9-rasm. Quruq mevalar tarkibidagi aflatoksinlarni zararsizlantirishda haroratga bog'liqligini tahlil natijalari

Tahlil natjalariga ko'ra, 50°C dan 90°C gacha saqlangan namunalarda mikotoksinlar miqdorida deyarli o'zgarish kuzatilmadi va aflatoksinlar namunalarimizda saqlanib qolishi kuzatildi.

Yong'oq tarkibidagi umumiy aflatoksinlar miqdori 100-120°C saqlanganda zararsizlantirish kuzatildi. Tarkibida aflatoksinlar miqdori yuqori bo'lgan namunalarda, aflatoksinlarning miqdori kamayishi kuzatildi. Inkubatsiya qilingan yeryong'oqlarda 90°C dan 120°C haroratgacha oshirilganda umumiy aflatoksinlar miqdori 50% gacha, achchiq bodom tarkibida esa 60% gacha kamayishi kuzatildi.

Mikotoksinlarni migratsiyasi va zararli ta'sirini baholash

Qayd etilganidek, standart namuna sifatida keltirilgan DON va ZEN YSSX usulida donli ekinlar mahsulotlarida aniqladik. Ushbu tadqiqotlarni davom ettirish asosida standart namunalar yordamida ZEN va DON toksinlarini bug'doy, makkajo'xori va pomidorning ontogenetik rivojlanishi bosqichlarida zamburug'lardan ajralishini monitoring qilib bordik. Buning asosiy sababi fermer dala maydonida yetishtirilgan makkajo'xori, bug'doy doni bilan o'zining tadbirkorligi asosida boqilayotgan parranda va chorva mollarini doim oziqlantirib kelgan. Kuzatishlar natijasida aniqlangan patologik belgilarining yuqumlilik xususiyatini aniqlash uchun kasallangan o'simliklardan namunalar olindi, materiallari va ish uslublarida ko'rsatilganidek, mexanik usulda inokulyatsiya qilindi va kasallik alomatlarining paydo bo'lishi kuzatildi.

Parranda va qora mollarida patologik holatlar doim kuzatib kelingan. Tadqiqotlar davomida fermer dalasida bug'doy, makkajo'xori va yoniga pomidor ekanidek, biz ham bug'doy, makkajo'xori va pomidor ekdik. Faqat ekishdan oldin va vegetativ rivojlanish bosqichlarida ZEN va DON toksinlarini ajralishiga sabab bo'luvchi zamburug' bilan inokulyatsiya qildik. Osimlikning vegetativ rivojlanishi va mahsulotlari tarkibida ZEN va DON toksinlarini ham yuqorida YSSX metodida standartlar yordamida aniqlaganimizdek, aniqlab, monitoring qilib bordik (4-jadval). Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, makkajo'xori va bug'doy nihollarining vegetativ rivojlanish bosqichlarida ZEN va DON toksinlarining bosqichli tarzda zamburug'lardan ajralish miqdori ortib bordi. Garchi ZEN va DON toksinlarining mahsulotlarda ruxsat etilgan ko'rsatkichlaridan past bo'lsada, mavjudligi aniqlandi (3-jadval).


3-jadval

O'simliklarning vegetativ rivojlanish bosqichlari va mahsulotlarida ZEN va DON toksinlarining ko'rsatkichlari (mg/kg)

O'simliklar	Dastlabki vegetativ rivojlanish bosqichida		Boshqoq va meva hosil bo'lganda		Mahsuloti tarkibida	
	ZEN	DON	ZEN	DON	ZEN	DON
Makkajo'xori	9	14	14	26	41	50
Bug'doy	-	24	11	32	16	45
Pomidor	-	-	-	18	14	36

Tadqiqotlarimiz davomida tovuq va qoramolga bug'doy va makkajo'xori donini fermer kabi ozuqa sifatida tayyorlab berdik. Toksinlarga ega ozuqa bilan

oziqlantirilgan tovuqda 5-chi kuni, qoramolda esa 11 kuni og‘iz qismi (qoramolda), tumshuq atrofida (tovuqda) qizil toshmalar paydo bo‘lib, oziqlanishga nisbatan ishtahasi dastlabki holatga nisbatan pasaydi. Tovuq va qoramolda fermer tovuq‘i va qoramolidagidek patologik o‘zgarishlar kuzatildi.




10-rasm. Makkajo‘xori, bug‘doy o‘simliklarining vegetativ rivojlanish bosqichlari va mahsulotlari asosida, ZEN va DON toksinlarining migratsiyasi

O‘simlik mahsulotlarida toksinlarni bo‘lmasligini eng muhim jihati zamburug‘lar bilan kasallanishini oldini olish yoki kasallangan o‘simliklarda zamburug‘larga qarshi tabiiy fiziologik faol birikmalar asosida ekologik zararsiz bo‘lgan vosita yoki preparatlarni qo‘llashdan iboratdir.

Shunga ko‘ra, tadqiqotlarimiz davomida shirinmiya ildiz tizimidan ajratib olingan fiziologik faol modda glitsirrizin kislotasi asosida tayyorlangan komplekslardan foydalangan holda, o‘simlik mahsulotlarini toksinlar bilan ifloslanishini oldini olish imkoniyatlarini aniqlashga harakat qildik. Buning uchun tayyorlangan kompleks bilan zamburug‘ bilan inokulyatsiya qilingan makkajo‘xori va bug‘doy doniga ishlov berdik (10-rasm).

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, barcha variantlarda glitsirrizin kislotasi komplekslari bilan ishlov berilganda, osimliklarning rivojlanish bosqichlari va mahsulotlaridan toksinlar aniqlanmadi. Demak preparat zamburug‘larning rivojlanishiga qarshi ta‘sir etib, o‘simliklarning chidamliligini oshirgan. Zamburug‘larning rivojlanmasligi hisobiga o‘simliklar toksinlardan holi, ekologik xavfsiz mahsulot olish imkoniyatini yuzaga kelish imkoniyatini bergan (11-rasm).



11-rasm. Zamburug bilan inokulyatsiya qilingan makkajo‘xori va bug‘doyga ishlov berish uchun tayyorlangan glitsirrizin kislotasi komplekslari

Demak, o‘simliklarni rivojlanish bosqichlarida zamburug‘larga qarshi personallashtirilgan tabiiy preparatlar bilan ishlov berilganda, ijobiy natijalar olish mumkin ekan.

XULOSALAR

1. Biomahsulotlar tarkibida mikotoksinlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodlarida tahlil qilish tizimi ishlab chiqilgan.

2. Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida aflatoksin B1, B2, G1, G2; oxratoksinning A, zeralenon, dezoksinivalenolmikotoksinlarini aniqlash uchun mahsulotlarni bir vaqtning o‘zida ekstraksiya qilish tizimi ishlab chiqilgan.

3. Biomahsulotlarda mavjud turli sinfdagi mikotoksinlarni qo‘shimcha tozalash va tanlab olish uchun dispersiv suyuqlik-suyuqlik mikroekstraksiyasi usuli taklif qilingan bunda metanoldan foydalanilmagan holda mikotoksinlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasida tahlil qilish tizimi ishlab chiqilgan.

4. Biomahsulotlar namunalaridan aflatoksinlar, zearalenon va oxratoksin A mikotoksinlarni ajratishda QuEChERS usulidan foydalanilib, ajratuvchi sorbent sifatida tarkibida kremniy saqlagan birlamchi ikkilamchi amin PSA bilan birgalikda limon kislotasidan foydalanilgan.

5. Mikotoksinlarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi metodlarida tahlil qilishda QuEChERS usulida namuna tayyorlash shartlariga turli omillarning ta’siri ko‘rsatkichlari aniqlangan.

6. Yetishtiriladigan quruq mevalar (o‘rik, yong‘oq, achchiq bodom, mayiz va yeryong‘oq) hamda donli ekinlar (bug‘doy, sholi, arpa va makkajo‘xori) kabi oziq-ovqat mahsulotlarini zamburug‘lar bilan zararlanish darajasini o‘rganish hamda olingan mahsulotlarni saqlash sharoitlari tavsiya etilgan.

ISHLAB CHIQRISHGA TAVSIYALAR

O‘simliklar va ulardan olinadigan oziq – ovqat mahsulotlari tarkibidan zamburug‘lar tomonidan ishlab chiqariladigan aflatoksin B1, B2, G1 va G2, dezoksinivalenol, zeralenon va oxratoksin A kabi mikotoksinlarni zamonaviy metodlarda ajratib olishning ishlab chiqilgan yangi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usullaridan foydalanish tavsiya etildi.

Yetishtiriladigan quruq mevalar (o‘rik, yong‘oq, achchiq bodom, mayiz va yeryong‘oq) hamda donli ekinlar (bug‘doy, sholi, arpa va makkajo‘xori) kabi oziq-ovqat mahsulotlarini zamburug‘lar bilan zararlanish darajasini o‘rganish hamda olingan mahsulotlarni saqlash sharoitlari ishlab chiqildi.

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/05.06.2020.К/В.91.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ГУЛИСТАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ТОЖИКУЛОВ АБДУХАЛИЛ АБДУЖАЛИЛ УГЛИ

**ОПРЕДЕЛЕНИЕ ТОКСИНОВ В СОСТАВЕ БИОПРЕПАРАТОВ,
СОЗДАННЫХ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА, МЕТОДАМИ
ВЫСОКОЭФФЕКТИВНОЙ ЖИДКОСТНОЙ ХРОМАТОГРАФИИ**

02.00.10 – Биоорганическая химия (Биология)

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована за номером В2024.2.PhD/B1149 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.siyes.uz) и на Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Кушиев Хабибжон Хожибобоевич

доктор биологических наук,
профессор

Официальные оппоненты:

Хошимова Нигора Рустамовна

доктор биологических наук, старший научный
сотрудник

Кадыров Орифжон Шарипович

кандидат фармацевтических наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский химико-технологический институт

Защита диссертации состоится «___» _____ 2024 г. в ___ часов на заседании Научного совета DSc.03/05.06.2020.К/В.91.03 по присуждению ученых степеней при Гулистанском государственном университете (Адрес: 140100, г.Гулистан, 4-микрорайон, кампус университета. Тел.: (+99867) 225-24-90, e-mail: gdu_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Гулистанского государственного университета (зарегистрирован за № ____). (Адрес: 120100, г.Гулистан, 4-микрорайон, кампус университета. Тел.: (+99866) 233-38-73, e-mail: sies_info@edu.uz)

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 года.

(реестр протокола рассылки №__ от «___» _____ 2024 года).

Тиялбаев Заиджон

Зампредседатель научного совета по
присуждению учёных степеней, д.б.н.,
профессор

Джураев Тулкин Арзикулович

Учёный секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
философии (PhD) по биологическим наукам,
доцент

Хошимова Нигора Рустамовна

Председатель научного семинара при научном
совете по присуждению учёных степеней,
доктор биологических наук, старший научный
сотрудник

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Одной из глобальных проблем в мире, стоящих сегодня перед человечеством, является возникновение отравлений или тяжелых заболеваний из-за токсинов, выделяемых различными патогенными и фитопатогенными микроорганизмами в состав пищевых продуктов¹. Более пятисот микотоксинов в составе пищевых продуктов, таких как трихотецены, охратоксины, афлатоксины, зеараленон, фумонизины, патулин и цитринины, секретируемые более чем сотней грибов, оказывают негативное влияние на здоровье скота, птицы и населения. Организациями ООН по безопасности пищевых продуктов ФАО и ВОЗ подчеркнуто, что 25% сельскохозяйственной продукции загрязнены микотоксинами, а в совместном решении обозначены специальные задачи, показывающие актуальность проведения мониторинга содержания микотоксинов в пищевых продуктах, связанных со здоровьем человека². Соответственно, важное значение имеют выявление и управление количественными показателями токсинов в пищевых продуктах, выращиваемых в условиях каждого климата.

Во многих научных центрах развитых стран мира проводятся исследования по управлению миграцией патогенных и фитопатогенных микроорганизмов в направлении безопасности пищевых продуктов, а также по выявлению их нормативных показателей на основе определения их вредности для продукции вместе с выделяемыми токсинами. В связи с этим при обеспечении безопасности растительной продукции особое внимание уделяется выбору или созданию оптимальных методов обнаружения токсинов, выделяемых патогенами, и установлению предела количественного показателя микотоксинов в составе продукции. Соответственно, в научном и практическом аспекте важное значение имеет мониторинг качества продукции на основе выбора и создания методов, позволяющих проводить высокоточный анализ токсинов в составе продукции.

В нашей стране на основе проводимых сегодня исследований, на практике реализуются инновационные разработки, основанные на нанотехнологических подходах по определению состава пищевых продуктов и созданию экологически безопасной продукции, и достигаются определенные научные результаты. В Стратегии развития по дальнейшему развитию экономики Нового Узбекистана³ обозначены важные задачи по «стимулированию научно-исследовательской и инновационной деятельности, создания эффективных механизмов внедрения на практике научных и инновационных достижений». Соответственно, в целях

¹Лара Х. Х., Аяла-Нунес Н. В., Икстепан-Туррент Л., Родригес-Падилья С. Механизм антивирусного действия наночастиц серебра против ВИЧ-1 // Журнал нанобиотехнологий.-2010.-№ 8.-р. 31–39.

²Вестник Южно-Уральского государственного университета. Сер. Еда и биотехнология. 2020, том. 8, нет. 1, стр. 105–111.

³ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года за №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» <https://lex.uz/ru/docs/5841077>

